MULOQOT DISKURSIDA IRONIYA VA KINOYALI HAZILNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Yuldosheva Mashxura Zokirjoz qizi
O‘zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litseyi
Tillarni o‘rganish kafedrasi boshlig‘i, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqot diskursida uchraydigan ironiya va banter (kinoyali hazil) hodisalari hurmatsizlik nazariyasi doirasida tahlil qilinib, mazkur nutqiy strategiyalarning pragmatik tabiati, ularning muloqot jarayonida qanday kommunikativ funksiyani bajarishi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ironiya, kinoyali hazil, hurmatsizlik, pragmalingvistika, diskurs, nutqiy strategiya, lokutsion akt, illokutsion ma’no

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklari faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ularning muloqot jarayonidagi funksional va pragmatik xususiyatlari nuqtai nazaridan ham o‘rganilmoqda. Shu sababli pragmalingvistika nutq jarayonida ma’no qanday yuzaga kelishi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar qanday shakllanishi hamda yashirin ma’nolar qanday anglashilishini tadqiq etuvchi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ironiya va hazil kabi nutqiy hodisalar muloqotning pragmatik tabiatini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ironiya va hazil nutq jarayonida ko‘pincha bevosita ifodalanmagan ma’nolar orqali namoyon bo‘lib, ular kontekst, intonatsiya va kommunikativ vaziyatga bog‘liq holda talqin qilinadi. Bunday nutqiy vositalar yordamida so‘zlovchi o‘z munosabatini bilvosita tarzda ifodalaydi, tanqid, baholash yoki samimiy munosabatni yumor orqali yetkazadi. Shu jihatdan qaralganda, ironiya

va hazil nafaqat stilistik vosita, balki muloqot strategiyasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Ironiya hodisasi turli davrlarda ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Antik davr mutafakkirlari – ***Aristotel, Sitseron va Kvintilian*** ironiyani nutqning ritorik vositasi sifatida tahlil qilib, uni aytilgan fikrning tashqi ma’nosi bilan asl ma’nosi o‘rtasidagi ziddiyatga asoslangan uslubiy hodisa deb baholaganlar [1]. Keyinchalik ironiyaga falsafiy yondashuv ***Suqrot*** nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u ironiyani dialektik muloqot usuli sifatida qo‘llagan. Suqrot o‘zini bilmaslikka solish orqali suhbatdoshini mulohaza yuritishga undagan va shu orqali haqiqatni ochishga intilgan. Bu yondashuv keyinchalik *A.F.Losev* tomonidan falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan [2].

Zamonaviy tilshunoslikda ironiyaning pragmatik xususiyatlari ***H.P.Grays*** tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik implikatura nazariyasi orqali izohlanadi. Unga ko‘ra, ironiyada so‘zlovchi gapning to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosini emas, balki kontekst orqali anglashiladigan yashirin ma’noni nazarda tutadi. Tinglovchi esa bu ma’noni mantiqiy xulosa va kommunikativ vaziyat orqali aniqlaydi[3].

O‘zbek tilshunosligida ham ironiyaning lingvistik va uslubiy xususiyatlari o‘rganilgan. Xususan, ***H.Do‘stmuhammedov*** ironiyani nutqning ekspressiv uslubiy vositalaridan biri sifatida baholab, uning yashirin mazmunni ifodalash va tanqidiy munosabatni yetkazishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi[4].

Suhbat jarayonida ***ironiya*** *va* ***kinoyali hazil (banter)*** muloqotning muhim pragmatik hodisalari sifatida qaraladi. Tashqi ko‘rinishda ular muloyimlik tamoyiliga ziddek tuyulsa-da, aslida bu hodisalar aynan shu tamoyil bilan bog‘liq nutqiy strategiyalar asosida yuzaga keladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ironiya va banter muloqot jarayonida ***hamkorlik prinsipi***

(Cooperative Principle) hamda ***xusmuomalalik prinsipi (Politeness Principle)*** bilan bog‘liq strategiyalar orqali shakllanadi va nutqiy maqsadni yashirin tarzda ifodalashga xizmat qiladi [5, 142-145]. Ironiyada so‘zlovchi voqeani jiddiy bayon qilganday bo‘ladi, ammo til vositalarini ko‘chma (okkazional) ma’noda qo‘llab, biron shaxs yoki voqelik ustidan kesatiq bilan kuladi. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi nutqining zaminida haqiqiy ma’noga zidlanuvchi asosiy maqsad -kulgi yoki kinoya ma’nosi yashiringan bo‘ladi. [6, 153-160]

Ironiya ko‘pincha sarkazm shaklida namoyon bo‘lib, ***lokutsion akt*** darajasida ijobiy yoki muloyim ifoda qo‘llanadi, biroq ***illokutsion ma’no*** darajasida tanqid yoki salbiy baho anglatadi. Masalan, ishlashi kerak bo‘lgan, ammo ishlamayotgan kishiga “Ha, juda yaxshi, bemalol dam olaver” tarzida murojaat qilish ironik nutqiy akt hisoblanadi. Bu yerda aytilgan fikr tashqi jihatdan ijobiy bo‘lsa-da, kontekstda uning asl ma’nosi tanqidni anglatadi. Bunday holatda nutqning bevosita ifodalangan mazmuni bilan ***pragmatik implikatura*** o‘rtasida ma’lum nomutanosiblik yuzaga keladi[7, 101-105].

Banter esa **kinoyali hazil** shaklida namoyon bo‘ladigan nutqiy strategiya hisoblanadi. Unda nutq lokutsion jihatdan qo‘pol yoki keskin ko‘rinadi, biroq uning **illokutsion maqsadi** suhbatdoshlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatni ifodalash va kommunikativ yaqinlikni mustahkamlashdan iborat bo‘ladi. Masalan, yaqin do‘stlar o‘rtasida hazil tariqasida *“hammasini olib ketma, ochko‘z!”* kabi iboralar ishlatilishi mumkin. Bunday ifodalar jiddiy mazmunda emas, balki suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlikni ko‘rsatadigan kommunikativ vosita sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, ironiya va banter nutqning ifodalangan shakli bilan uning pragmatik ma’nosi o‘rtasidagi farq orqali yuzaga keladigan muhim pragmatik hodisalar hisoblanadi[7, 112-118].

Suhbatdagi ironiya va (kinoyali hazil) banter hodisalarida nutqning ma’nosi ko‘pincha ***teskari talqin*** mexanizmi orqali anglanadi. Ironiyada muloyim yoki ijobiy ko‘rinishdagi nutqiy birlik aslida jiddiy ma’noda qo‘llanmaydi; uning haqiqiy mazmuni kontekst orqali aniqlanadi. Masalan, kimdir ishni lozim darajada bajarmayotgan vaziyatda unga *“Ha, juda yaxshi, bemalol dam olaver”* tarzida murojaat qilish tashqi jihatdan ijobiy ifoda bo‘lsa-da, aslida tanqidiy mazmunni anglatadi. Bunday holatda nutqning lokutsion shakli bilan uning pragmatik talqini o‘rtasida farq yuzaga keladi. Odatda ironiya maxsus intonatsiya, ohang yoki nutqning emotsional rangdorligi orqali ajratib ko‘rsatiladi.

Ironiya ko‘pincha sovuqqon yoki tanqidiy ohang bilan ifodalanadi, banter esa aksincha, do‘stona muhitda yuzaga keladi. Banter holatida nutq yuzaki jihatdan qo‘pol yoki keskin ko‘rinishi mumkin, biroq u jiddiy haqoratni anglatmaydi. Aksincha, bunday nutqiy strategiya suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli banter ko‘pincha yaqin do‘stlar yoki yaxshi tanish bo‘lgan shaxslar o‘rtasida uchraydi. Bu orqali suhbat ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarida rasmiy muloyimlik qoidalariga qat’iy amal qilish shart emasligini bildiradilar.

Hazil ayrim hollarda muloyimlikning turli maksimlariga zid bo‘lishi ham mumkin. Masalan, maqtovga javoban soxta maqtanish shaklida bildirilgan hazil kamtarlik me’yoriga zid ko‘rinadi. *Boshqa vaziyatlarda esa hazil soxta tanqid shaklida namoyon bo‘lib, maqtov yoki ijobiy baholash tamoyiliga qarama-qarshi bo‘lishi mumkin.* Shunga qaramay, bunday nutqiy shakllar odatda jiddiy tanqid sifatida emas, balki hazil yoki do‘stona muloqot unsuri sifatida qabul qilinadi.

Suhbatdagi ironiya va kinoyali hazil hodisalari ko‘pincha ***hurmatsizlik (impoliteness)*** bilan bog‘liq nutqiy strategiyalar sifatida talqin qilinadi. Tashqi

ko‘rinishda bu nutqiy shakllar muloyimlik tamoyiliga ziddek ko‘rinsa-da, ular aslida muloqot jarayonida ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va ma’lum kommunikativ maqsadni amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, impoliteness tadqiqotlarida ironiya va kinoyali hazil ***soxta xushmuomalalik va soxta hurmatsizlik*** strategiyalari sifatida izohlanadi.

Quyida ***ironiya*** *va* ***banter (kinoyali hazil)***ning pragmatik nuqtayi nazaridan asosiy farqlari ikki ustunda keltiriladi.

Ironiya (sarkazm)	Kinoyali hazil (banter)
Nutq shaklan **muloyim yoki ijobiy** ko‘rinadi, ammo asl ma’nosi **tanqid yoki salbiy baho**ni anglatadi.	Nutq shaklan **qo‘pol yoki hurmatsizlik sifatida** ko‘rinadi, ammo asl ma’nosi **do‘stona hazil**ni anglatadi.
Soxta muloyimlik (mock politeness) strategiyasi hisoblanadi.	**Soxta hurmatsizlik (mock impoliteness)** strategiyasi hisoblanadi.
Lokutsion darajada ijobiy ifoda, lekin **pragmatik ma’noda salbiy baho** mavjud.	Lokutsion darajada qo‘pol ifoda, lekin **pragmatik ma’noda ijobiy munosabat** mavjud.
Ko‘pincha **tanqid, istehzo yoki norozilik**ni ifodalash uchun ishlatiladi.	Ko‘pincha **yaqinlik, samimiylik va guruh birdamligini** ko‘rsatish uchun ishlatiladi.
Ohang ko‘pincha **sovuqqon, istehzoli yoki tanqidiy** bo‘ladi.	Ohang odatda **do‘stona, kulgi va samimiylik** bilan ifodalanadi.
Noto‘g‘ri talqin qilinsa, **haqiqiy nomuloyimlik sifatida qabul qilinishi** mumkin.	Odatda **yaqin do‘stlar yoki tanishlar o‘rtasida** qo‘llanadi va haqiqiy haqorat sifatida qabul qilinmaydi.

Mazkur hodisalarni *hurmatsizlik nazariyasi* doirasida o‘rganish

muloqotdagi nutqiy strategiyalarining qanday shakllanishi va qanday kommunikativ funksiyalarni bajarishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, ironiya va hazil nutqning ifodalangan shakli bilan uning pragmatik talqini o‘rtasidagi murakkab munosabatni ochib beradi. Bu esa til birliklarining faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ijtimoiy va pragmatik omillar bilan ham bog‘liq holda talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, ironiya va hazilni ilmiy jihatdan o‘rganish pragmalingvistika, sotsiopragmalingvistika hamda diskurs tahlili kabi sohalar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar muloqot jarayonidagi yashirin ma’nolarni aniqlash, nutqiy strategiyalarni to‘g‘ri talqin qilish hamda turli kommunikativ vaziyatlarda til birliklarining qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Natijada, insonlar o‘rtasidagi muloqot mexanizmlarini chuqurroq anglash va samarali kommunikatsiyani ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Квинтилиан М. Ф. Наставление оратору. – Москва: Наука, 1970. – С. 214.

2. Лосев А. Ф. Античная философия: Учебное пособие. – Москва: Фолио, 2000. – С. 84.

3. Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and Semantics. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.

4. Do‘stmuhammedov H. O‘zbek tilining uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 59-60.

6. Leech G. N. *Principles of Pragmatics*. –London: Longman, 1983. – P. 142-145.

7. Ibragimova E. Ironiya va uning lingvistik tabiati // Shaxs ma’naviyatining

shakllanishida til va adabiyotning roli: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023. – B. 153-160.

8. Levinson S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 101-105.